

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

Xizmatlar sohasining rivojlanishi hozirgi zamon iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Xizmatlar sohasida ilmiy bilimlar, nomoddiy shakldagi to'plamlar, axborot texnologiyalari va tadbirkorlik faoliyati integratsiyasi kabi iqtisodiy o'sishning asosiy omillari shakllanmoqda.

Iqtisodiyotning ushbu sektori turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu faoliyatning yakuniy natijasi tayyor mahsulot emas, balki ko'rsatilgan xizmatlardir. Xizmatlar nafaqat korxonalarga, balki jismoniy shaxslar - yakuniy iste'molchilarga ham ko'rsatilishi mumkin.

Xizmatlar sohasi ko'lami juda xilma-xildir. Bunga mahsulotlarni ishlab chiqaruvchidan mijozga etkazib berish, shu qatorida ko'ngilochar tadbirlarni tashkillashtirish, shuningdek, sartaroshxonalar, restoranlar, ta'mirlash ustaxonalar, sport klublari, sayyoqlik agentliklari va boshqalar kiradi.

Innovatsion texnologiyalarni joriy etish va an'anaviy xizmatlarni rivojlantirish bo'yicha aniq maqsadli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish ishlab chiqarilgan bozor xizmatlar hajmini oshishiga olib keladi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi - 1512,5 mlrd. so'm




Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati - 109,0 %

2020-yil yanvar-mart oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1512,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2019-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,0 % ni tashkil etdi.

Ijtimoiy, siyosiy, jamoatchilik muammolarni, tumanlarning iqtisodiy salohiyatini ko'tarmasdan, ularning barqaror rivojlanishisiz hal qilib bo'lmaydi. Hududiy siyosat maqsadlariga faqat iqtisodiy jihatdan samarali bo'lgan loyihalarni amalga oshirish orqali erishish mumkin.

Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslaridan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

2020-yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %




Xizmatlarning umumiy hajmida Urganch shahrining ulushi eng ahamiyatli bo'lib, 52,2 % ni tashkil etadi. Bu aholi real daromadlari boshqa tumanlardan ko'ra yuqoriroq ekanligi bilan izohlanadi.

Bundan tashqari, eng katta ulush Urganch (7,3 %), Hazorasp (6,1 %), Xonqa (4,9 %) va Gurlan (4,4 %) tumanlarida qayd etildi.

Xizmatlar sohasining eng past ko'rsatkichlari Yangibozor tumani (3,2 %), Xiva tumanida (3,2 %) va Xiva shahrida (2,9 %) kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'satilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2020-yil yanvar-mart oylarida ularning ulushi 27,1 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar transport xizmatlari (23,2 %), moliyaviy xizmatlar (18,9 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,4 %) bo'yicha qayd etildi.


2020-yil yanvar-mart oylarida xizmatlar tarkibi (jami hajmga nisbatan), %



Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar – 1,4 %, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar – 1,7 %, shuningdek ijara xizmatlari - 2,4 %, yashash va ovqatlanish xizmatlari bo'yicha - 2,2 % uncha yuqori bo'limgan ulush qayd etildi.

Deyarli barcha tumanlarda bozor xizmatlari hajmining o'sishi savdo va transport xizmatlari, moliyaviy xizmatlar kabi xizmatlar tarkibidagi ulushining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatilmoqda.

**Ayrim xizmat turlari hajmining
taqqoslanishi, mlrd. so‘m**



Joriy yilning yanvar-mart oylarida 2019-yilning mos davriga nisbatan ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o‘sishiga moliyaviy xizmatlar (103,4 mlrd. so‘mga), savdo xizmatlari (56,7 mlrd. so‘mga) va transport xizmatlari (40,3 mlrd. so‘mga) hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

2020-yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari


	Hajmi, mlrd. so'm:	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %:
Xizmatlar, jami	1512,5	109,0
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	82,1	114,4
moliyaviy xizmatlar	286,3	139,5
transport xizmatlari	350,4	102,7
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	334,2	102,9
yashash va ovqatlanish xizmatlari	32,9	99,1
savdo xizmatlari	409,5	102,7
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	45,2	101,3
ta'lim sohasidagi xizmatlar	82,6	97,8
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	25,9	116,6
ijara xizmatlari	36,4	115,4
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	54,6	108,0
shaxsiy xizmatlar	49,9	103,0
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	21,4	101,4
boshqa xizmatlar	35,3	98,1

**2020-yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo'yicha
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**

	Hajmi, mlrd. so'm:	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %:
Xorazm viloyati	1512,5	109,0
Urganch shahri	790,1	112,8
Xiva shahri	43,8	109,7
<i>tumanlar:</i>		
Bog'ot	63,2	107,6
Gurlan	66,7	106,8
Qo'shko'pir	60,6	109,7
Urganch	111,0	89,6
Hazorasp	92,2	108,1
Xonqa	74,7	111,8
Xiva	48,1	101,5
Shovot	60,2	108,9
Yangiariq	54,8	110,0
Yangibozor	47,1	110,2

Zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish, aholining ta'lif va madaniy darajasini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar doirasini kengaytirishga yordam beradi.

2020-yil yanvar-mart oylarida bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %




2020-yil yanvar-mart oylarida 2019-yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar (139,5 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (116,6 %), ijara xizmatlari (115,4 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (114,4 %) kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

Tumanlar o'rtasida Urganch shahri (790,1 mlrd. so'm) yetakchilik qilmoqda. 2019-yilga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati Urganch shahri bo'yicha 112,8 % ni tashkil etdi.

Eng kichik hajm Xiva tumanida (48,1 mlrd. so'm), Yangibozor tumanida (47,1 mlrd. so'm) va Xiva shahrida (43,8 mlrd. so'm) kuzatildi.

2019-yilning mos davriga nisbatan 2020-yil yanvar-mart oylarida eng yuqori o'sish sur'atlari Urganch shahri (112,8 %) va Xonqa tumanida (111,8 %) qayd etildi.

2020 yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %



**2020-yil yanvar-mart oylarida
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi, %**

Eng kam ulush:

Shaxsiy xizmatlar - 3,3 %



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar - 3,0 %




Ijara xizmatlari - 2,4 %



Boshqa xizmatlar - 2,3 %



Yashash va ovqatlanish xizmatlari - 2,2 %



Sog'lioni saqlash sohasidagi xizmatlar - 1,7 %



Me'morchilik sohasidagi xizmatlar - 1,4 %



Eng katta ulush:

Savdo xizmatlari - 27,1 %



Transport xizmatlari - 23,2 %



Moliyaviy xizmatlar - 18,9 %



Ta'lim sohasidagi xizmatlar - 5,5 %



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari - 5,4 %



Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash - 3,6 %




Hozirgi vaqtida savdo sohasi iste'molchilarining bozor talabini shakllantirish jarayonida faol ishtirokchi hisoblanadi. Bugungi kunda savdo xizmatlari mamlakat iqtisodiyotida ko'rsatilayotgan umumiylajmi hajmining sezilarli qismini tashkil etadi. Respublikada zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda chakana savdo tarmoqlari faol rivojlanmoqda.

2020-yil yanvar-mart oylarida savdo xizmatlari hajmi 409,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiylajmi hajmidagi ulushi 27,1 % ni tashkil etdi.

2019-yilning mos davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 56,7 mlrd. so'mga oshdi.

2020-yil yanvar-mart oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %




- Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosidan tashqari
- Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlar (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)
- Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 76,0 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 17,2 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosini bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 6,8 % ni egallaydi.

2020-yil yanvar-mart oylarida transport xizmatlarining tarkibi, %




Transport xizmatlarining umumiy hajmida quruqlikdagi transport xizmatlari - 97,2 %, omborga joylashtirish xizmatlar va yordamchi transport xizmatlari – 2,2 %, pochta va kurerlik xizmatlari – 0,6 % ni tashkil etdi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va moliya-kredit muassasalari xizmatlari tez rivojlanayotgan xizmat turlari hisoblanadi. Yangi texnologiyalarga va bozorni erkinlashtirish natijalariga tayanib, bu faoliyat turlari hozirgi vaqtida rivojlanishning yangi bosqichi sifatida paydo bo'ldi va bugungi kunda jamiyatning texnologik taraqqiyoti va iqtisodiyotning globallashuvida hal qiluvchi rol o'yndaydi.

Ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish, AKT sohasida innovatsiyalarni joriy etish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida yangi turdag'i xizmatlarning paydo bo'lishi aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmini oshirishga ta'sir ko'rsatadi.

2020-yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 82,1 mlrd. so'mga teng bo'lib, 2019-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 114,4 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 5,4 % ni tashkil etdi.

2020 yil yanvar-mart oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibi, %




Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulush (97,0 %) telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet, yo'ldosh aloqa xizmatlari va b.q.) hissasiga to'g'ri keladi.

Moliya-bank tizimini isloh qilish bo'yicha olib borilayotgan izchil chora-tadbirlar iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, aholi bandligini va farovonligini ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatish, jumladan, "raqamli" banklar va chakana xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan bank bo'linmalarini tashkil etish uchun innovatsion bank texnologiyalarini joriy qilish, masofadan turib bank xizmatlarini ko'rsatish, to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga yordam beradi.

2020-yil yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 286,3 mlrd. so'mga teng bo'lib, 2019-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 139,5 % ni tashkil etdi.

2020-yil yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar (94,0 %) katta salmoqqa egadir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 73,3 % ulush bilan yetakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 26,7 % ga to'g'ri keladi.

2020-yil yanvar-mart oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarining tarkibi, %

**Yashash va ovqatlanish
bo'yicha xizmatlar -100 %**



**Oziq-ovqat va ichimliklar
bilan ta'minlash xizmatlari
73,3 %**



**Yashash bo'yicha xizmatlar
26,7 %**


2019 – yilning mos davri bilan taqqoslaganda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar ulushining ko'payish omillaridan biri viloyatda turizm faoliyatini rivojlantirish hisoblanadi. Jahonga mashhur Xiva shahrining tarixiy yodgorliklari, zamonaviy shaharlar, O'zbekistonning betakror tabiat, noyob milliy taomlari, shuningdek, xalqimizning betakror mehmondo'stligi sayohatchilarni o'ziga jalb qiladi.

2019-yilning mos davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati 99,1 % ni tashkil etdi.

Ta'lif sohasidagi olib borilayotgan islohotlar avvalambor insonlar ongini va fikrlash doirasini kengaytirishga hamda ma'naviyatini yuksaltirishga yordam bermoqda.

2020 - yil yanvar-mart oylarida ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi 82,6 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiyligi hajmidagi ulushi 5,5 % ni tashkil etdi.


Ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi va o'sish sur'atlarining taqqoslanishi



2019-yilning mos davri bilan taqqoslaganda ta'lif sohasidagi xizmatlarning hajmi 14,9 mlrd. so'mga oshdi.

Xorazm viloyatida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlar hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoxda. Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlar hajmi 2019-yilning mos davriga nisbatan 135,8 ming so'mga oshib, 809,1 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati 107,2 % tashkil qildi.

**Viloyat bo'yicha
aholi jon boshiga ko'rsatkichlar**




Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish uchun eng muhim shartlardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining ijobiy natijalari xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish, jamiyatni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal etishda uning rolini oshirish bilan uzviy bog'liqdir.

Shahar va tumanlar o'rtaida Urganch shahri (5486,8 ming so'm) yetakchilik qilmoqda. 2019-yilning mos davriga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati Urganch shahri bo'yicha 111,2 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga to‘g‘ri kelgan eng kichik hajm Xiva tumanida (331,7 ming so‘m), Qo‘siko‘pir tumanida (352,5 ming so‘m) va Shovot tumanlarida (355,2 ming so‘m) kuzatildi.

2019-yilning mos davriga nisbatan 2020-yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Urganch shahri (111,2 %) va Xonga tumani (110,1 %) da qayd etildi.

2020 - yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Xorazm viloyati statistika boshqarmasi Xizmatlar sohasi statistikasi bo‘limi

Mas'ul: K. Matchanov